https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Daminova Farangiz Egamberdi qizi
Qarshi davlat universiteti
Iqtisodiyot kafedrasi 3-kurs talabasi
E-mail: farangizdaminova05@gmail.com

O‘ZBEKISTONDA “KORXONA–OLIYGOH–ILMIY TASHKILOT” KLASTER MODELI ASOSIDA AMALIY TADQIQOTLARNI TIJORATLASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya *Mazkur maqolada “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan innovatsion rivojlanish ustuvor yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda, “korxona–oliygoh–ilmiy tashkilot” klaster modeli asosida amaliy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Strategiyada ilm-fan, ta’lim va real sektor integratsiyasini kuchaytirish orqali iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish asosiy maqsad sifatida belgilangan bo‘lib, ushbu maqola aynan shu vazifalarning ilmiy-amaliy yechimlariga bag‘ishlangan. Tadqiqot doirasida innovatsion iqtisodiyot sharoitida ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarish jarayoniga joriy etishning nazariy va amaliy jihatlari o‘rganilgan. Maqolada klaster modelining institutsional tuzilmasi, manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik mexanizmlari hamda ularning innovatsion faoliyat samaradorligiga ta’siri baholangan.*

Maqolada “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi maqsadlariga mos ravishda texnologiya transfer ofislarini rivojlantirish, klasterlar doirasida davlat–xususiy sheriklikni kuchaytirish, startap va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari innovatsion siyosatni takomillashtirish, ilmiy salohiyatdan samarali foydalanish hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston-2030 strategiyasi, innovatsion rivojlanish,“korxona–oliygoh–ilmiy tashkilot” klasteri modeli, amaliy tadqiqotlar, texnologiya transferi, davlat-xususiy sheriklik.*

Аннотация*: В данной статье на основе приоритетных направлений инновационного развития, определённых в стратегии «Узбекистан – 2030», исследуются вопросы совершенствования механизмов коммерциализации результатов прикладных исследований на основе кластерной модели «предприятие – высшее учебное заведение – научная организация». В стратегии в качестве ключевой цели обозначено повышение конкурентоспособности экономики за счёт усиления интеграции науки, образования и реального сектора, и настоящая статья посвящена научно-практическим решениям именно этих задач. В рамках исследования изучены теоретические и практические аспекты внедрения научных разработок в производственные процессы в условиях инновационной экономики. Проанализированы институциональная структура кластерной модели, механизмы взаимодействия заинтересованных сторон, а также их влияние на эффективность инновационной деятельности.*

В статье, в соответствии с целями стратегии «Узбекистан – 2030», разработаны практические предложения и рекомендации по развитию офисов трансфера технологий, усилению государственно-частного партнёрства в рамках кластеров, а также совершенствованию механизмов финансирования стартапов и инновационных проектов. Полученные результаты имеют научно-практическое значение для совершенствования инновационной политики, эффективного использования научного потенциала и повышения конкурентоспособности национальной экономики.

Ключевые слова: *стратегия «Узбекистан – 2030», инновационное развитие, кластерная модель «предприятие – высшее учебное заведение –*

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

научная организация», прикладные исследования, трансфер технологий, государственно-частное партнёрство.

***Abstract**: This article examines issues related to improving the mechanisms for the commercialization of applied research results based on the "enterprise–higher education institution–research organization" cluster model, in line with the priority areas of innovative development defined in the "Uzbekistan – 2030" Strategy. The Strategy identifies enhancing the competitiveness of the national economy through strengthening the integration of science, education and the real sector as a key objective and this study is specifically devoted to the scientific and practical solutions addressing these tasks. Within the scope of the research, both theoretical and practical aspects of integrating scientific developments into production processes in the context of an innovation-driven economy are analyzed. The institutional structure of the cluster model, interaction mechanisms among stakeholders and their impact on the effectiveness of innovation activities are assessed.*

In accordance with the objectives of the "Uzbekistan – 2030" Strategy, the article proposes practical recommendations aimed at developing technology transfer offices, strengthening public–private partnerships within cluster structures and improving financing mechanisms for startups and innovative projects. The research results have significant scientific and practical relevance for enhancing innovation policy, ensuring the effective utilization of scientific potential and increasing the competitiveness of the national economy.

***Keywords:** Uzbekistan – 2030 Strategy, innovative development, "enterprise–higher education institution–research organization" cluster model, applied research, technology transfer, public–private partnership.*

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

KIRISH

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida innovatsiyalar iqtisodiy o‘sishning asosiy harakatlantiruvchi omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lib kelmoqda. Ilm-fan, ta’lim va korxonalar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlash orqali yangi bilimlarni iqtisodiy qiymatga aylantirish zamonaviy rivojlanish modelining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy etish va ularni tijoratlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi jahon miqyosida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda innovatsion faoliyatni jadallashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Xususan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ilm-fan, ta’lim va real sektor integratsiyasini kuchaytirish, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularning natijalarini iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish orqali barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish asosiy vazifalar sifatida qayd etilgan. Mazkur strategik hujjatda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, texnologiya transferini rag‘batlantirish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish alohida e’tiborga olingan.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda “korxona–oliygoh–ilmiy tashkilot” klaster modeli muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur model ilmiy bilimlar ishlab chiqarilishi, ularni amaliy tadqiqotlar orqali takomillashtirish va bozorga yo‘naltirilgan innovatsion mahsulotlar yaratish jarayonida manfaatdor tomonlarning samarali hamkorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, aynan klaster yondashuvi asosida tashkil etilgan tizimlar ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirishda yuqori samaradorlikka erishishga imkon bermoqda.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Biroq O‘zbekistonda ushbu model doirasida muayyan institutsional va tashkiliy asoslar shakllanayotgan bo‘lsa-da, amaliy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish jarayonida qator muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, texnologiya transferi mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, xususiy sektorning ilmiy faoliyatdagi ishtirokining pastligi, moliyalashtirish va bozor infratuzilmasi bilan bog‘liq cheklovlar mavjud. Mazkur holat ilmiy ishlanmalar salohiyatidan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda.

Shu munosabat bilan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi maqsadlaridan kelib chiqqan holda, “korxona–oliygoh–ilmiy tashkilot” klaster modeli asosida amaliy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llarini ilmiy jihatdan asoslash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Ushbu maqola aynan mazkur masalalarni tahlil qilish, xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish hamda milliy sharoitga mos amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga bag‘ishlangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Innovatsion rivojlanish va ilm-fan, ta’lim hamda sanoat integratsiyasi masalalari global va mahalliy tadqiqotlarda keng o‘rganilgan. Henry Etzkowitz va Loet Leydesdorff tomonidan ishlab chiqilgan “korxona–oliygoh–ilmiy tashkilot” modeli (Triple Helix) ilmiy tadqiqotlar va texnologiya transferi uchun nazariy asos sifatida qabul qilinadi [2]. Ushbu model dastlab Massachusetts texnologiya institutida amaliyotga joriy etilgan [3] va keyinchalik Shveysariya va boshqa rivojlangan davlatlarda muvaffaqiyatli qo‘llanilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ilm-fan va sanoat o‘rtasidagi samarali hamkorlik mamlakatning innovatsion salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston sharoitida esa innovatsion rivojlanish strategiyalari, R&D xarajatlari va ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, davlat–xususiy sheriklik, klaster yondashuvi va texnologiya transfer ofislari faoliyati bo‘yicha AQSh tajribasi va mahalliy tajribalar solishtirma

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

tarzda ko‘rib chiqilgan. Bu yondashuv ilmiy natijalarni yaratish, baholash, moliyalashtirish va bozorga chiqarish jarayonlarini bir tizim doirasida amalga oshirish imkonini beradi.

Tadqiqotda miqdoriy va sifat metodlar uyg‘unligi qo‘llanildi. Miqdoriy tahlil Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, R&D xarajatlari va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish ko‘rsatkichlariga tayangan holda amalga oshirildi. Sifat metodlar sifatida esa adabiyotlar tahlili, case-study va ekspert bahosi ishlatildi. Case-study O‘zbekistonning Innovatsion o‘quv-ishlab chiqarish texnoparki va oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik loyihalarini o‘rganishga yordam berdi, ekspert bahosi esa klaster va texnologiya transferi samaradorligini baholash imkonini berdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida innovatsion rivojlanish milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishni ta’minlovchi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan bo‘lib, unda ilm-fan, ta’lim va real sektor o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish alohida e’tirof etiladi. Strategiyada amaliy tadqiqotlar uchun davlat byudjetidan 4 million so‘m ajratilib 850 ming turdagi innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarilish hamda 2,5 mingdan ortiq yangi ilmiy ishlanmalar yaratish belgilangan shuningdek 8 ta ilmiy ishlab chiqarish klasterini yaratish maqsad qilib qo‘yilgan [1].

Ilm-fan, korxona va davlat hamkorlik mexanizmini nazarda tutuvchi ushbu model 1990- yillarda Henry Etzkowitz va Loet Leydesdorff olimlar tomonidan yaratilgan [2]. Dastlab AQShda Massachusetts texnologiya instituti tomonidan qo‘llanilgan bo‘lsa [3], hozirgi kunga kelib Shveysariyada bu model keng miqyosda foydalanilib kelinganligi sababli 2025-yilda Butunjahon intellektual mulk tashkiloti tomonidan tuzilgan Global innovatsion indeks reytingida 139 ta davlat orasida 1-o‘rinni egalladi va bu yetakchilik pozitsiyasi strategik jihatdan

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

uzoq yillar davomida saqlanmoqda. Bu reyting indikatorlari ilm-fan, texnologiya va sanoat bo‘yicha universitetlar, ilmiy tadqiqot institutlari va korxonalar o‘rtasidagi faol hamkorlik samaradorligini aks ettirgan bo‘lib, Shveysariya yuqori innovatsion salohiyatini saqlab kelmoqda [4] bu esa mamlakatning innovatsion faoliyat va universitetlar, ilmiy tadqiqot institutlari hamda sanoat o‘rtasidagi uzviy hamkorlik asosida shakllangan integratsiyalangan tizimiga asoslanadi shu sababli universitet–ilmiy markaz-sanoat hamkorligi indikatorlarida ham eng yuqori natijalardan biriga ega. Bu ko‘rsatkichlar universitet va ilmiy markazlarning sanoat bilan yaqindan ishlashini va yaratilgan bilimlarni iqtisodiyotga tatbiq etishda faol bo‘lishini tasdiqlaydi.

Statistik tahlillarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi 2024-yil ma‘lumotlariga qaraganda, ilmiy-tadqiqot va tajriba-ishlab chiqarish (R&D) xarajatlari 2024-yil uchun taxminan 1 574,1 milliard so‘mni tashkil qilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda



1-rasm. O‘zbekistonda 2020–2024 yillarda ilmiy-tadqiqot va tajriba-ishlab chiqarish (R&D) xarajatlari, milliard so‘m [5]

Mazkur natijalar O‘zbekiston sharoitida muhim ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish imkonini beradi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan innovatsion rivojlanish ustuvorliklari doirasida korxona–oliygoh–ilmiy tashkilot klasterlarini rivojlantirish, texnologiya transfer ofislarini institutsional jihatdan mustahkamlash hamda startap va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish zarur. Xususan, davlat–xususiy sheriklik asosida

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

R&D loyihalarini qo‘llab-quvvatlash va xususiy sektorning ilmiy faoliyatdagi ishtirokini rag‘batlantirish milliy innovatsion tizim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Dunyo tajribasidan kelib chiqadigan bo‘lsak, AQSHda universitet–sanoat–davlat hamkorligini mustahkamlash uchun texnologiya transferi mexanizmlari chuqur institutlashtirilgan. Texnologiya transferining asosiy maqsadi — ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish va sanoat ehtiyojlariga integratsiya qilishdir. Amerikalik qonunchilik natijasida (masalan, Bayh-Dole Act) universitetlar va ilmiy muassasalarga davlat moliyalashtirgan tadqiqotlar bo‘yicha patent huquqlarini ushlab turish va ularni litsenziyalash huquqi berildi. Bu qonun akademik tadqiqotlarni bozorda qo‘llanish imkoniyatini keskin yaxshiladi va patentlar hamda startaplar sonini oshirdi, shu orqali ilm-fan samaradorligini iqtisodiy natijalarga aylantirishga xizmat qildi [6].

Bundan tashqari, AQSHda Federal labaratoriyalar uyushmasi (FLC) kabi tashkilotlar faoliyat yuritadi: ular federal laboratoriyalar va xususiy sektor o‘rtasida ilmiy-texnik yutuqlarni bozorga chiqarishni tezlashtiruvchi platforma sifatida xizmat qiladi, texnologiyalarni tijoratlashtirish strategiyalarini ishlab chiqadi va transfer jarayonidagi to‘siqlarni yengish bo‘yicha metodik yordam beradi [7].

Amerika tajribasida Hamkorlikdagi Ilmiy-Tadqiqot va Ishlanmalar Shartnomasi ham keng qo‘llaniladi [8]. Bu bitimlar hukumat laboratoriyalari va universitetlar bilan xususiy korxonalar o‘rtasida qo‘shma ilmiy-ta’limiy va ilm-biznes loyihalarini amalga oshirishga imkon beradi, resurslarni optimallashtiradi hamda patent huquqlarini himoya qiladi.

Ushbu siyosatlar natijasida AQSHda texnologiya transferi samaradorligi yuksaldi, universitetlar va ilmiy muassasalarda patentlashtirish faoliyati kuchaydi, shuningdek akademik yo‘nalishdan tashqari startaplar va innovatsion bizneslar

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

paydo bo‘ldi bu orqali korxona-oliygoh-ilmiy tashkilot hamkorligi yanada mustahkamlandi.

AQSH tajribasi shuni ko‘rsatadiki, korxona-universitet-ilmiy muassasa modeli asosida innovatsion hamkorlikning samaradorligi nafaqat hukumat siyosati, balki kuchli institutlar, texnologiya transferi mexanizmlari va xususiy sektor ishtirokida shakllanadi. O‘zbekiston ushbu tamoyillarni o‘z milliy holatiga moslashtirib, ilm- fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi bo‘shliqlarni bartaraf etish, texnologiya transferini rivojlantirish va innovatsion iqtisodiyotni mustahkamlash yo‘lida qadam qo‘yishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida “korxona–oliygoh–ilmiy tashkilot” klaster modelini joriy etishga qaratilgan islohotlar so‘nggi yillarda muhim darajada faollashdi. Bu boradagi chora-tadbirlar asosan ilm-fan va ta’limni ishlab chiqarish bilan integratsiyalash, innovatsion g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etish hamda ilmiy natijalardan biznes va iqtisodiyot manfaatlarida foydalanish tizimini mustahkamlashga qaratilgan.

Xuddi shu tarzda, ilmiy tashkilotlar va korxonalar o‘rtasida amaliy hamkorlik loyihalari yo‘lga qo‘yilmoqda. Bunga misol qilib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi (“INNO”) Innovatsion o‘quv-ishlab chiqarish texnoparki va bir qator oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida qo‘shma hamkorlik memorandumlari imzolangan hamda birgalikda talabalarni amaliyotga jalb etish, innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va texnologiya transferini rivojlantirish bo‘yicha strategik muzokaralar o‘tkazilgan. Masalan, INNO Innovatsion ta’lim-ishlab chiqarish texnoparki Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent traktor zavodi va UzAuto Motors Powertrain korxonasi bilan memorandum imzolagan [9]. Bu hamkorlik O‘zbekistonning sanoat korxonalari, oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarini birlashtirgan innovatsion klasterni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

integratsiya sanoat ehtiyojlariga mos innovatsion yechimlarni tezkor ishlab chiqish va tatbiq etish imkonini yaratadi.

Ilmiy ekspertlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ilmiy va ishlab chiqarish sektorlari o‘rtasidagi integratsiyaning samaradorligi hali ideal darajada emas. Masalan, Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti ma’lumotlariga ko‘ra, hatto yirik sanoat korxonalarida ilmiy tashkilotlar bilan hamkor tadqiqotlar soni nisbatan past va faol ilm-fan natijalarining o‘rganilishi va amaliyotga tatbiq etilishi bo‘yicha imkoniyatlar mavjud. Shu sababli korxonalar va ilmiy markazlar o‘rtasida klaster aloqalari yanada chuqurlashtirilishi zarur [10].

Mazkur tadqiqot doirasida O‘zbekiston sharoitida ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan integratsiyalashgan mualliflik modeli ishlab chiqildi. Ushbu model texnologiya transferi ofislarini institutsional jihatdan rivojlantirish, klasterlar doirasida davlat–xususiy sheriklikni kuchaytirish hamda startap va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini yagona tizimda birlashtirishga qaratilgan bo‘lib, muallif tomonidan mustaqil konseptual yondashuv asosida shakllantirilgan.

Taklif etilayotgan mualliflik modeli ilmiy natijalarni tijoratlashtirish jarayonini alohida-alohida mexanizmlar orqali emas, balki uzviy bog‘langan institutsional-ekotizim sifatida talqin qiladi. Modelning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, ilmiy natijalarni yaratish, ularni baholash, moliyalashtirish va bozorga chiqarish bosqichlari yagona boshqaruv va koordinatsiya mexanizmi asosida amalga oshirilishi lozim.

Modelning markaziy elementi sifatida integratsiyalashgan texnologiya transferi ofislari tarmog‘i (ITTOT) taklif etiladi. Mazkur ofislar an’anaviy texnologiya transferi tuzilmalaridan farqli ravishda faqat patentlash yoki litsenziyalash bilan cheklanmaydi, balki ilmiy ishlanmalarni dastlabki bosqichdan boshlab tijorat salohiyati nuqtayi nazaridan baholaydi, bozor talablarini tahlil qiladi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

va korxonalar bilan birgalikda innovatsion loyihalarni shakllantiradi. ITTOT faoliyati ilmiy tashkilotlar, oliy ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish subyektlari o‘rtasida bilim, texnologiya va moliyaviy resurslar oqimini muvofiqlashtiruvchi markaz sifatida yo‘lga qo‘yiladi.

Mualliflik modelining ikkinchi muhim tarkibiy qismi — davlat–xususiy sheriklikka asoslangan innovatsion klasterlardir. Ushbu klasterlar doirasida oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar ilmiy g‘oyalar generatori sifatida, xususiy sektor esa bozor talablarini belgilovchi va investitsiya kirituvchi subyekt sifatida ishtirok etadi. Davlat esa infratuzilmaviy qo‘llab-quvvatlash, normativ-huquqiy muhitni shakllantirish va moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlarini ta’minlaydi. Bu yondashuv ilmiy faoliyatni ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan bevosita bog‘lash imkonini beradi va ilmiy ishlanmalarning bozorga moslashuv darajasini oshiradi.

Modelning uchinchi asosiy elementi sifatida startap va innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning gibrid mexanizmi taklif etiladi. Ushbu mexanizm davlat grantlari, xususiy investitsiyalar va venchur moliyalashtirish instrumentlarini o‘zaro uyg‘unlashtirishga asoslanadi. Dastlabki bosqichda ilmiy ishlanmalar davlat grantlari orqali qo‘llab-quvvatlanadi, keyingi bosqichlarda esa xususiy sektor va investorlarga tijorat salohiyati yuqori bo‘lgan loyihalar taklif etiladi. Bu yondashuv innovatsion loyihalarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash bilan birga, ularning tezkor rivojlanishiga xizmat qiladi.

Taklif etilgan mualliflik modelining mavjud yondashuvlardan tub farqi shundaki, unda xususiy sektor manfaatlari ilmiy tadqiqotlarning boshlang‘ich bosqichidayoq inobatga olinadi, tijoratlashtirish jarayoni esa tadqiqot yakunida emas, balki butun innovatsion sikl davomida amalga oshiriladi. Shuningdek, modelda texnologiya transferi, klaster hamkorligi va moliyalashtirish mexanizmlari alohida emas, balki yagona tizim sifatida faoliyat yuritadi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Muallif tomonidan ishlab chiqilgan ushbu integratsiyalashgan model O‘zbekiston sharoitida ilmiy natijalarni tijoratlashtirish jarayonida mavjud institutsional uzilishlarni kamaytirish, texnologiya transferi ofislari faoliyatini faollashtirish va innovatsion loyihalarning bozorga chiqish ehtimolini oshirishga qaratilgan. Modelning amaliy ahamiyati shundan iboratki, u ilm-fan, biznes va davlat manfaatlarini muvozanatlashgan holda birlashtirib, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish uchun barqaror asos yaratadi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “O‘zbekiston–2030” strategiyasida belgilangan innovatsion rivojlanish ustuvorliklari milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlashda ilm-fan, ta’lim va real sektor o‘rtasidagi integratsiyaning muhimligini tasdiqlaydi. Ilmiy-amaliy tahlillar O‘zbekistonda korxona–oliygoh–ilmiy tashkilot klasterlarini rivojlantirish, texnologiya transfer ofislarini institutsional jihatdan mustahkamlash va startap hamda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini ko‘rsatmoqda. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan integratsiyalashgan mualliflik modeli ilmiy natijalarni tijoratlashtirish jarayonini yagona institutsional-ekotizim doirasida amalga oshirishga imkon beradi, bu esa ilm-fan, biznes va davlat manfaatlarini uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Taklif etilgan mualliflik modeli bir nechta jihatdan ilmiy-amaliy ahamiyatga ega: birinchidan, u ilmiy natijalarni yaratish, baholash, moliyalashtirish va bozorga chiqarish bosqichlarini integratsiyalashgan boshqaruv mexanizmi orqali amalga oshirishni ta’minlaydi; ikkinchidan, texnologiya transferi ofislari tarmog‘i, davlat–xususiy sheriklikka asoslangan innovatsion klasterlar va gibrid moliyalashtirish mexanizmi orqali innovatsion loyihalarning samaradorligini oshiradi; uchinchidan, model O‘zbekistonda ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish sektorlari o‘rtasidagi institutsional uzilishlarni kamaytirish va ilmiy ishlanmalarni iqtisodiyotga tatbiq

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu tariqa, integratsiyalashgan mualliflik modeli milliy innovatsion tizimning barqarorligini ta'minlash, innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi va ilmiy salohiyatning amaliy iqtisodiy foydaga aylantirilishiga hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. PF-158-son, 11.09.2023. Available from: https://lex.uz/ru/docs/-6600413
2. Etzkowitz H, Leydesdorff L. The Triple Helix—University-Industry-Government Relations: A Laboratory for Knowledge-Based Economic Development. EASST Review. 1995;14(1):14- 19.
3. Brill Publishers. *The Triple Helix Journal*. Available from: https://brill.com/view/journals/thj/7/2-3/article-p189_4.xml
4. Global Geneva Business Alliance. Switzerland tops global innovation ranking for the 15th consecutive year. Available from: https://ggba.swiss/en/switzerland-tops-global-innovation-ranking-for-the-15th-consecutive-year/?utm_source
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. *Innovatsiya sohasidagi faoliyat bo'yicha press-reliz* [Internet]. 2025 Jul 25. Available from: https://stat.uz/img/press-relizlar/press-reliz-innovatsiya-eng-25_07_2025_p64657.pdf?utm_source
6. USPTO. *Technology Transfer Policy*. Available from: https://www.uspto.gov/ip-policy/patent-policy/technology-transfer?utm_source
7. Wikipedia. *Federal Laboratory Consortium*. Available from: https://en.wikipedia.org/wiki/Federal_Laboratory_Consortium?utm_source
8. Wikipedia. *Cooperative Research and Development Agreement*. Available from: https://en.wikipedia.org/wiki/Cooperative_research_and_development_agreement?utm_source=
9. INNO Innovatsion Texnopark. *Partners*. Available from: https://innotechnopark.com/en/partners?utm_source
10. ISRS. *Ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish masalalari tanqidiy ko'rib chiqildi*. Available from: https://isrs.uz/oz/ozbekiston-yangiliklari/ilm-fan-va-innovatsiyani-rivojlantirish-masalalari-tanqidiy-korib-chiqildi?utm_source